

**CHET TILLARINI O'QITISHDA INRTERFAOL METODLARDAN  
FOYDALANISHNING AVFZALLIKLARI**

**Isroilova Shoxsanam Azizbek qizi**

*Andijon davlat chet tillar instituti, Xorijiy til va adabiyoti fakulteti,  
2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. *Shularni e'tiborgan olgan holda hozirgi ilm-fan va texnika taraqqiyoti davri har bir yosh kadrlarni zamon bilan hamnafas odimlashi, shuningdek turli soha mutaxassislari o'z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarda muloqot qila olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Horijiy tillarni o'zlashtirishda yangi metodlardan foydalanishning afzalliklari ochib berildi.*

**Аннотация:** Будущее каждого общества определяется уровнем развития системы образования, которая является его неотъемлемой частью и жизненной необходимостью. *Учитывая это, в нынешнюю эпоху развития науки и техники считается целесообразным, чтобы каждый молодой кадр шел в ногу со временем, а также чтобы специалисты различных областей помимо владения несколькими иностранными языками могли общаться на нескольких иностранных языках. в совершенстве владеют родным языком. Выявлены преимущества использования новых методов в изучении иностранных языков.*

**Abstract:** The future of every society is determined by the level of development of the education system, which is an integral part of it and a vital necessity. *Taking this into account, the current era of science and technology development is considered appropriate for every young personnel to keep pace with the times, as well as for specialists of various fields to be able to communicate in several foreign languages in addition to having a perfect knowledge of their native language. The advantages of using new methods in learning foreign languages were revealed.*



***Kalit soʻzlar:*** pedagogik texnologiyalari, axborot texnologiyalari, til aspektlari, interfaol taʼlim, interfaol metod, interfaol taʼlim texnologiyasi, tarbiyaviy vazifalar.

Yurtboshimiz, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 6-may kuni chet tillarini oʻqitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yigʻilishi oʻtkazilgan edi. Unda Davlatimiz rahbari “Mamlakatimizda xorijiy tillarni oʻrgatish boʻyicha kelajak uchun mustahkam poydevor boʻladigan yangi tizimni yoʻlga qoʻyish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy oʻquv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qatʼiy talab har bir taʼlim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”, degan taʼkidlari sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Xorijiy tillarni oʻrganishni takomillashtirish maqsadida xalqaro nashriyotlar tomonidan ishlab chiqilgan chet tillari fanlari darsliklarini olib kelish va umumiy oʻrta taʼlim maktablarida joriy qilishga qaratilgan tizimli islohotlar davom etmoqda [1-2].

Biz bilamizki, hozirgi taʼlim jarayonida oʻquvchi subʼekt boʻlishi lozim. Bunda koʻproq interfaol metodlarga eʼtiborni qaratish taʼlim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qoʻyilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga oʻrgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili oʻqituvchilari Amerika Qoʻshma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

Asosiy maqsad – taʼlim muassasalarida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish.

Taʼlim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni olib kirish taʼlim sifati va samaradorligini oshirish demakdir. Xususan, xorijiy tillarni oʻrganish va oʻrgatishda bunday kommunikativ texnologiyalardan foydalanishning bir qancha ahamiyatli ustunliklari mavjud. Hozirda chet tili koʻnikmalarini baholashning IELTS, CEFR, TOEFL kabi testlari ishlab chiqilgan. Bu jarayonlarda texnologik vositalardan foydalanish chet tilining har bir aspektini oʻrgatishda noanʼanaviy hamda interfaol topshiriqlar kabi zamonaviy yondashuvlar bilan qoʻl keladi. Masalan, tinlab tushunish



qismi uchun, albatta, turli qurilmalar, player, CD diskless tasavvur qilish qiyin. Shu sababdan ham zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanish talab etiladi. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi, bundan tashqari harakatli o'yinlar vositasida o'quvchilar diqqati dars jarayonida bir joyda jamlashni ta'minlaydi [3-4].

*Interfaol ta'limning asosiy mezonlari:* norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega [5].

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi [5]. Innovatsion texnologiyalarning xorijiy til kompetensiyalarni o'qitishdagi ahamiyati katta. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darsni sifatli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiya ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egalashni takomillashtirish usullaridir. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatga yangilik, o'gartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlari egadir. Bulardan asosiysi o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z



o'rtog'larining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ayni paytda xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish darsni har tomonlama sifatli va qiziqarli o'tish imkonini beradi va innovatsion texnologiyaga qiziqish kundan kunga ortib bordi. Innovatsion texnologiyalar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga tahlil, xulosa qilishga o'rgatadi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Jalolov Jamol. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012.
2. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37.
3. Robotjazi, M. A. (2008). Language education: Intercultural communicative competence and curriculum. Glossa, 3(2), 245-265
4. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent – 2012 yil
5. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36-37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)